

BOLALAR NUTQIDAGI NUQSONLAR VA ULAR BILAN OLIB BORILADIGAN KORREKSION ISHLAR

XALILOVA MAFTUNA BAXTIYOR

QIZI

*O'zMPU Pedagogika-psixologiya va
inklyuziv ta'lim fakulteti logopediya yo'nalishi talabasi*

Annotatsiya: Ushbu maqolada bolalarda nutqning rivojlanishi va buzilishining o'ziga xos jihatlari xususida so'z yuritiladi. Qayd etib o'tish lozimki, bolalarda kuzatiladigan nutq buzilishlarining ayrim ko'rinishlari mavjud bo'lib, ular bir-biridan mazmuniga ko'ra hamda tabiatiga ko'ra farqlanadi. Bolalarda uchraydigan nutq buzilishlarini o'z vaqtida bartaraf etish ularning kelgusida jiddiy kasallikka aylanmasligi uchun asos vazifasini o'taydi.

Kalit so'zlar: dislaliya, dizartriya, alaliya, afaziya, rinolaliya, duduqlanish, perinatal, natal, postnatal

Nutq - insonning murakkab oliy psixik funksiyalaridan biridir. Nutq harakatlari murakkab a'zolar tizimi orqali amalga oshiriladiki, bunda bosh miya faoliyati asosiy rol o'ynaydi. Nutq odamlarning asosiy aloqa vositasidir. Usiz odam katta hajmdagi ma'lumotni qabul qila olmaydi va uzatolmaydi. Yozma nutqsiz, odam avvalgi ajdodlarning qanday yashaganligi, ularning fikrlari va ishlarini bilish, hamda boshqalarga yetkazish imkoniyatidan mahrum bo'lar edi. Aloqa vositasi sifatida nutq tufayli insonning shaxsiy ongi, shaxsiy tajribasi bilan cheklanib qolmasdan, boshqa odamlarning tajribasi bilan boyitiladi va kuzatuv va nutqdan tashqari boshqa jarayonlarga qaraganda, to'g'ridan- to'g'ri bilish amalga oshiriladi. Bola nutqidagi kamchiliklar o'zgarar nutqini tushinishdagi qiyinchilik, ularni atrofdagilar bilan muloqatda bo'lishi o'z tengqurlariga qo'shib ketishini qiyinlashtiradi. Nutq tafakkurni ko'ra olish bo'lganligi sababli, bola ulg'aygan sari atrof-muhitdagi tasavvurlari shakllanadi va uni aks ettirish so'z lug'ati orqali takomillashib boradi. Nutqning rivojlanishda ta'lim-tarbiya ijtimoiy hamda biologik omillarning ta'siri ham kattadir.

Buyuk mutaffakirlarimizdan biri Yusuf Xos Hojib “Qutadg'u-blig” asarida : “Bilim va zakovat sohibi bo'lishning asosiy kalitini til bayon qiladi. Til tufayli kishi o'z bilimi, aql idrokini, zakovatini til, so'z orqali bildiradi” - degan fikrlarini yozib qoldirgan. Nutq faqat inson uchun xos bo'lgan alohida va yuqori darajadagi aloqa shaklidir. Nutqiy aloqa jarayonida kishilar fikr almashadilar va bir-birlariga ta'sir etadilar. Barchamizga ma'lumki, bugungi kunda bolalarimizda eng ko'p uchrayotgan nuqsonlardan biri nutq nuqsoni hisoblanadi. Bugungi kunda har bir oila bolaning ilk yoshida unga berilgan sog'lom tarbiva, ertangi kun yaratuvchisining sog'lom fikrli va go'zal ravon nuqtli bo'lishini ta'minlashi lozim. Avvallo, nuqsonli bo'lib, dunyoga kelmasligi uchun ona ham jismonan, ham ruhan sog'lom bo'lishi kerak. Xo'sh, aslida nutq nuqsonlari qanday kelib chiqadi? Mutaxassislar nutqning o'z vaqtida rivojlanmasligi yoki keskin sekinlashuvining sabablari juda ko'p ekanligini aniqlashgan. Biz o'z navbatida bu sabablarni uch guruhga ajratishimiz mumkin:

- Homiladorlik davri (perinatal davri);
- Tug'ruq davri (natal davri);
- Tug'ruqdan keyingi davr (postnatal davr).

Perinatal sabablarga homiladorlik davrida turli xil kasalliklarni boshdan kechirish, turli xil infeksiyalar, intoksikatsiya, homila toksikozi, gepoksiya yoki kislorod yo'qotish, qon bosimining oshishi, homilador ayol va homila qon guruhining mos kelmasligi, sigaret, alkogol va giyohvandlik moddalarini iste'mol qilish, o'z-o'zini davolash, ya'ni ayrim dori- darmonlarni qabul qilish, homiladorning homila uchun xavfli bo'lgan joylarda ishlashi (radiatsiya) kiradi.

Natal sabablarga esa, tug'ruq davrida akusherlik patologiyalari ya'ni, tos suyagining kichkinaligi, homilaning kindik o'qiga o'ralishi, tug'ruqdan oldin suv ketishi, homilaning noto'g'ri joylashishi, tug'ruq jarayonida bosh miyaning jarohatlanishi, tug'ruq jarayonidagi asfiksiya natijasida bolaning ko'karib tug'ilishi kiradi.

Postnatal davr 1 yoshdan 3 yoshgacha bo'lgan davrda bosh miyadan turli xil jarohatlarni olish, bosh miyadagi infeksiyalar, turli xil yuqumli kasalliklar sababli yuzaga keladi.

Nutqdagi kamchiliklar bolaning rivojlanishiga, ta'lim-tarbiyasiga ham salbiy ta'sir ko'rsatadi. Nutq nuqsonlarini tasniflashda birinchi navbatda bolaning ruhiy, aqliy va eshitish idroki tekshirib olinadi. Nutq nuqsonlari og'ir-yengilligiga qarab guruhlariga ajratiladi:

1. Dislaliya - bu artikulyatsion apparat a'zolari normal innervatsiyasida yuzaga kelgan logopatsiya bo'lib, asosan tovushlar talaffuzidagi kamchiliklar va ba'zan fonematik idrok rivojlanmaganligi bilan namoyon bo'ladigan yengil nutq nuqsoni.

2. Dizatriya - bu artikulyatsion apparat a'zolari innervatsiyasining organik jarohatlanishi natijasida yuzaga keladigan og'ir nutq nuqsoni bo'lib, juft neyronlarning shikastlanishi natijasida yuzaga keladi. Falajlanish asosan bir tarafdin, chap yoki o'ng tarafdin bo'ladi. Bola tili asosan paretik falajlangan bo'shashgan yoki spastik, ya'ni tarang falajlanishda bo'ladi.

3. Alaliya- bu bosh miyaning organik jarohatlanishi natijasida yuzaga keladigan og'ir nutq nuqsoni bo'lib, bu tashxis eshitishi va zakovati me'yorda bo'lgan shaxslarga qo'yiladi. Alaliya nutqning 3ta komponenti rivojlanmaganligi bilan namoyon bo'ladi.

4. Afaziya- bu bosh miyaning organik jarohatlanishi natijasida shakllangan nutqning yo'qolishi. Bolalar afaziyasi tajribada kam uchraydi. Afaziya asosan, insultdan keyin uchraydi. Bolalarda esa miya infeksiyalari, miya rivojlanishi davrida turli xil kuchli travmalar natijasida yuzaga keladi.

5. Rinolaliya - bu artikulyatsion apparat a'zolarida tug'ma yoki orttirilgan nuqsonlarning bo'lishi yoki artikulyatsion apparat a'zolarida burun, burun halqum sohasida falajlanishlarning kuzatilishi, burun suyagining qiyshayishi, burun sohasidagi turli xil o'simtalar, odenoidlar, poliplar bo'lishi natijasida yuzaga keladigan og'ir nutq nuqsonlari hisoblanadi.

6. Duduqlanish - bu og'zaki nutq jarayonida artikulyatsion apparat a'zolari muskullarining tortishishi sababli og'zaki nutqning tempritmik o'zgarishi natijasida

yuzaga keladi. Duduqlanish ham kelib chiqishiga ko'ra o'z navbatida 2 xil bo'ladi: 1. Nevrotik duduqlanish (logonevroz) bolaning kuchli ruhiy kechinmalari, stress, depressiya, qo'rquv, haddan tashqari qattiqqo'llik, chapaqaylikdan o'ng qo'lga o'rgatish, oiladagi ikki tillilik, duduqlanuvchiga taqlid qilish natijasida yuzaga keladi.

2. Nevrozsimon duduqlanish - bu bosh miyaning organik jarohatlanishi, bosh miyadagi turli xil o'simtalar, dizartriya, tayanch harakat a'zolari kasalliklari, DSP natijasida yuzaga keladi. Duduqlanish o'z vaqtida bartaraf etilmasa bolaning ruhiy rivojlanishiga salbiy ta'sir etadi. Bola o'z fikrini mustaqil bayon eta olmasligi natijasida tengdoshlari bilan muloqotga kirisha olmaydi.

Bolalarimizda nutqiy nuqson borligini sezganimizdayoq mutaxassislarga murojaat qilishimiz kerak. Chunki har bir vaqtida oldini olingan nuqsonni tez va oson davolash mumkin. Nutqiy nuqsonlarni bartaraf etuvchi mutaxassislar bular - Logopedlardir. Defektologiyaning bir tarmog'i bo'lib yunonchada nutq nusqonlarni o'rganish Logopediya so'zida yotadi. Logopedlar maxsus mashqlar yordamida chiroyli gapirish va tovushlarni aniq-tiniq talaffuz qilishni o'rgatadi. Logopedlar bir paytning o'zida ham shifokor, ham pedagog va bolajonlar uchun mehribon ona timsolida shakllanadilar. Nutq nuqsoni o'z- o'zidan barham topmaydi, balki vaqt o'tgan sari yanada mustahkamlanib, zo'rayib boradi. Nutqida nuqsoni bor bolalarning so'zlagan so'zlari yoshiga mos kelmaydi. Nutqida nuqsoni og'irroq bo'lgan kishining nafaqat nutqida, balki umumiy rivojlanishiga ham ta'sir ko'rsatadi. Shu ko'rsatilgan nuqt nuqsonlari o'z xususiyatlari jihatidan bolalarda va katta yoshdagi kishilarda ba'zan vaqtincha uchrab turadigan nutqiy kamchiliklardan farq qiladi. Yosh bolalarda kamdan-kam o'z-o'zidan to'g'irlanib barham topib ketishi mumkin. Yoshi kattargan sari, katta yoshli bo'lgandan keyin bunday hodisalar asosan charchash, hayajonlanish, asabiylashish, natijasida uchrab turadi. Nutq murakkab funksional jarayondir. Nutq orqali odam borliqni, fikran idrok etishi mumkin. Muayyan tovushni hosil qilishda ilk urinish bola hayotining 2-3 ovida paydo bo'ladi. Bola kattalarga taqlid qilish orqali tovush. so'zlarni to'g'ri talaffuz qilishga o'rganadi. Maktabgacha yoshdagi va maktab yoshidagi bolalarning ko'pchiligi aniq va to'g'ri chiroyli nutqqa ega bo'ladilar. Lekin

ular orasida nutqiy nuqsonga ega bo'lgan bolalar ham uchramaydi deya olmaymiz. Ular nuqtida faqatgina tovushlarni talaffuz qilishda nuqsoni borlar bilan birga, balki bolada nutqning umuman rivojlanmaganligi ham kuzatiladi. Afsuski, bunday nutqiy nuqsonga ega bo'lgan bolalar maktab dasturlarini o'zlashtirishga qiynaladilar. Shuning uchun ot-onalar. Tarbiyachilar bolalarning nutqiga e'tibor berishlari va o'z vaqtida nutqida uchraydigan kamchiliklarni oldini olishlari zarur. Pedagogika fanlar nomzodi, professor M.Ayupova ma'lumotlariga ko'ra, 5 yoshli bolalarda tovushlar talaffuzidagi kamchiliklar 41.5%, 6 yoshli bolalarda 22.9%ni tashkil etar ekan, eng tarqalgan ma'lumotlarga ko'ra bolalarning lug'at boyligi bog'chagacha bo'lgan davrda o'sishi 1 yosh-u 6 oylikda 10-15 ta so'z, 2 yoshida 300 ta so'z, 3 yoshga kelganda 1000 ta so'z. 4-6 yoshga 3000-4000 tagach so'zni, 7-17 yoshgacha bo'lgan davrida yozma nutq yetakchi rol o'ynaydi. Bolalar nutqining rivojlanish jarayoni o'z vaqtida to'g'ri ketishi maxsus sharoitlar zarur:

-bola ruhiy va jismoniy jihatdan sog'lom bo'lishi normal aqliy qobiliyatga ega bo'lishi;

-normal ko'rishi va eshitishi lozim;

-yetarli darajada ruhiy aktivlikka ega bo'lishi;

-gaplashish ehtivojiga ega bo'lishi.

Bolalar 7-8 oylik bo'lganda ularni atrofdagilardan eshitgan so'zlari bilan o'sha so'zlarda ifodalangan ma'no o'rtasida birinchi taqqoslashlar hosil bo'ladi. Bolalar o'zlariga qarata aytilgan so'zlarga javoban harakat qiladigan bo'lishadi. Shunga ko'ra, bola so'zlarni noto'g'ri talaffuz qiladi. Tovushlarni buzib birining o'rniga boshqasini qo'yib talaffuz qiladilar. Ko'pincha so'zlardagi ayrim tovushlarni, hatto bir butun bo'g'inlarni tushurib qoldiradilar. Masalan, "olma" ni o'rniga "alma", "suvni" o'rniga "buva", "non"ni o'rniga "nana" deb aytib bolalarda avrim bir harflar voki so'zlarni noto'g'ri aytib, nutqdagi kamchiliklar yuzaga kelishiga sabab bo'lamiz. Nutqida nuqsoni bo'lgan bolalalar tibbiy pedagogik komissiyada logoped tekshiruvdan o'tkazib, muassasalarga yuboriladi. Bugungi kunda yurtimizda Maktabgacha ta'lim muassasalari. maktablar, maktab-internatlarida logoped sinflari, hamda

Respublikamizning barcha viloyatlarda bolalar poliklinikalari qoshida logoped punktlari mavjud. U yerda logopedlar nutq kamchiliklari oldini olish, tuzatish va nutqdagi nuqsonga ega bo'lgan farzandlaridan uyalib, logoped huzuriga olib borishmaydi va buning natijasida bu nuqsan yanada zo'rayib, boshqa salbiy oqibatlarga ham olib kelishi mumkin. Bolalarimiz o'zida chiroyli ravon, nutqni shakllantirishga befarq bo'lmaylik aziz onajonlar!

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Logopediya M.Y. Avupova O'zbekiston faylasuflar Milliy jamiyati nashriyoti. Toshkent-2007.
2. "Korreksion pedagogika" kafedrasida logopediya tarixi fanidan o'quv metodik kompleksi.
3. A.K. Shamshetova, R.N. Melibayeva, X.E. Usmanova, I.O. Xaydarov "Umumiy psixologiya" o'quv qo'llanma- Toahkent: "Barkamol fayz media", 2018
4. M.Y. Ayupova-Korreksion ishlar metodikasi Ma'ruza matni .T-2001
5. L.I. Belyakova, YE.A. Dyakova -Logopediya Zaikaniyev xrestomatiya - Eksmo-Pressl, 2001.